

ABU NASR FAROBIYNING FALSAFIY QARASHLARIDA INSON MASALASI

Abdufattayeva Shahrizoda Shuhratbek qizi

SHFM 1-kurs magistranti

abdufattoyevashahrizoda@gmail.com

Ilmiy rahbar: Sharq falsafasi va madaniyati

kafedrası dotsenti, f.f.n. M. Qodirov

Annotatsiya. Falsafada ko'plab bahs munozaralarga sabab bo'ladigan mavzu inson muammosidir. Inson masalasining dolzarbligi shundaki, falsafa sub'ekt-ob'ekt munosabatlari asosida shakllangan bo'lib, sub'ekt tomonini "tafakkur qiluvchi borliq", ya'ni "inson" tashkil qiladi. Qolaversa, "inson muammosi" azaldan ham G'arb, ham Sharq falsafasida, jumladan yunon faylasufi Suqrot falsafasida ham, birinchi musulmon faylasufi Kindiy falsafasida ham asosiy masala bo'lib kelgan. Ushbu maqolada inson va uning mohiyatiga Forobiy tomonidan bildirilgan g'oyalar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. Abu Nasr Forobiy, Aristotel, Aflotun, yunon falsafasi, materializm, idealizm, emonatsiya, borliq, inson, farishta, jin, bahoyim (hayvon) "tafakkur qiluvchi o'lim", "tafakkur qiluvchi o'lmas", "o'lmas fikrlovchi", "fikr qilmaydigan o'lim", "ruh ul-amr", materiya, modda, shakl, Ilohiy ruh, mukammal aql.

Jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy Osiyolik mashxur faylasuf, qomusiy olim Forobiyning to'liq ismi Abu Nasr Muhammad ibn Uslug' Tarxon edi. U 873-yil Sirdaryo sohilidagi Farob shahrida turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida dunyoga keladi. Forobiy yoshligidan bilimga chanqoq, bilimli va g'ayratli bo'lib voyaga yetadi. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Olimning ilm-fan oldidagi xizmatlaridan biri uning yunon mutafakkirlari asarlarini sharhlaganligi va ularni yangi g'oyalar bilan boyitganligidir. Alloma, eng avvalo, Arastu asarlariga sharhlar bitgan, uning naturfalsafiy g'oyalarining targ'ibotchisi va davomchisi sifatida tanilgan.

Forobiy o'z davrining yetuk mutafakkirlaridan biri hisoblanib, falsafa ilmi rivojiga o'zining bebaho fikrlari bilan hissa qo'shgan. U falsafaning deyarli barcha sohalarida ijod etdi. Jumladan, asrlar davomida falsafaning bosh mavzusi hisoblangan inson masalasi ham Forobiy e'tiboridan chetda qolmagan. Islom faylasuflari, jumladan, Forobiy ham insonni "ruh va aql" kabi tushunchalar bilan ifodalagan.

Antik davr yunon faylasuflari Aristotel va Aflotun falsafasida ham "ruh va aql" konsepsiyalari munozaralarning asosini tashkil etgan. Ikkala faylasuf ham Suqrotning

davomchilari bo'lsa-da, ularning qarashlarida bir qancha tafovutlar mavjud. Sharqda "Muallim as-Soniy" va ikkinchi islom faylasufi sifatida ulug'lanadigan Farobiy Aristotel va Aflotunning fikrlarini murosaga keltirishga, murosa asosida yangi tafakkur yaratishga harakat qiladi¹. U bu ikki yunon faylasuflari g'oyalaridan ta'sirlangan holda yaratgan o'zining inson to'g'risidagi g'oyalarini islom falsafasi bilan uyg'unlashtiradi. Bu orqali u azaliy muammo bo'lib qolayotgan ayrim savollarga javob beradi. Jumladan, materialistlar va ideologlar o'rtasida ko'plab bahs munozaralarga sabab bo'lgan "Inson kim?", "U nima uchun yashaydi?", "U yaralganmi yoki yaratilganmi?", "Insonda ruh mavjudmi?", "Mavjud bo'lsa u abadiymi?". Farobiy bu savollarga ham materialistik, ham idealistik nuqtai nazardan javob berishga harakat qiladi. U Aristotel materializmi, Aflotun idealizmi va islom falsafasini uyg'unlashtigan holda insonga ta'rif beradi.

Farobiy falsafasida "har bir inson tabiatan baxtli bo'lishni xohlaydi" g'oyasi yotadi. U har bir inson baxtli bo'lishga haqli deb biladi va buni iroda erkinligi konsepsiyasi asosida izohlaydi. Farobiyning fikriga ko'ra, Alloh insonni va azaliy qonunlarni yaratgan. Mana shu qonunlarga rioya qilish yoki qilmaslikni tanlash uchun esa insonga iroda ekanligini bergan. Iroda erkinligi oqibatini bilgan holda ikki yo'ldan birini tanlash ihtiyoridir. Inson o'z taqdiri uchun o'z hatti-harakatlari bilan mas'ul. Shunday ekan, insonning baxtli bo'lishi ham yoki aksincha baxtsiz bo'lishi ham uning o'z qilmishlariga bog'liq.

Hozirgi zamonda aqliy kuchi va qilish qobiliyati nuqtai nazaridan inson o'z ixtiyoridagi ishlar va sabablarni farqlovchi kuch sifatida ta'riflanadi. Bu kuch nima foydali ekanligini tushunmagunicha, ish va sabablarni kuzatadi. Inson to'quvchi yoki kotib bo'lib tug'ilmaydi. Biroq u fe'l va san'atga moyil bo'lib tug'iladi. Aniqrog'i to'siq bo'lmasa, inson o'zi uchun oson bo'lgan ishni qilishga moyil bo'ladi, lekin inson tug'ma ravishda barcha san'atlarga moyil emas. Shuning uchun odamlar aqliy fazilatlarga tayyor bo'lib tug'ilmaydi. Xuddi shunday insonlar ham tug'ma yomon ishlarga moyil bo'lishi mumkin emas.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtiradigan bo'lsak, inson kompozitsion mavjudot, uning tarkibiy qismlari materiya va shakldir. Inson Farobiy fikriga ko'ra, borliqning bir turi bo'lib u modda va shakldan iborat tirik komponent va unda ilohiy ruh mavjud. Farobiy insondagi ilohiy ruhni Platonning emonatsiya g'oyasi asosida izohlaydi.

Platonning emonatsiya nazariyasiga ko'ra, butun borliq ilohiy ibtidoning porlashi natijasida paydo bo'lgan. Farobiy Platonning emanatsiya g'oyasini islom falsafasi bilan uyg'unlashtira oldi. U Allah yaratgan mavjudotlar ichida nega aynan inson oliy mavjudot ekanligini Platon emonatsiyasi hamda Qur'oni Karim oyatlari orqali isbotlab

¹ Adamson, Peter. In the age of Al-Farabi, Arabic Philosophy in the Fourth/Tenth Century//Journal of Islamic Studies 22 (no. 2)-L.: Press, 2011. – P. 132.

berdi. Islom falsafasiga ko'ra "ruh" tushunchasi ilohiy qudratga ega². Sababi Alloh insonni yer bag'ridan yaratib, unga o'z ruhidan puflab, jon ato etgan. Aynan shu sababli ham inson U yaratgan mahluqotlar ichida eng oliysidir. Farobiy insondagi noyob, boshqa mahluqotlardan farqli bo'lgan xususiyatlarning sababini ham emonatsiya g'oyasi bilan izohlaydi. Alloh o'z ruhidan insonga jon ato etganida porlash sodir bo'lib, Alloh ruhidagi ma'lum bir hislatlar ham insonga o'tgan. Shu sababli ham insonlar boshqa mahluqotlardan farqli ravishda yaratish qobiliyatiga ega.

Forobiy ta'riflaridan birida "inson ikki moddadan tashkil topgan birikma (siyoh) dir"³. Boshqacha aytganda, inson ikki substansiya, birikma tushunchasi ikki moddaga yuklangan. Birikmalar (ob'ektlar) hosil bo'lish va parchalanishga duchor bo'ladi. Demak, inson ikki substansiya sifatida shakllanish va yemirilishga tobe mavjudotdir. Bular Aristotel g'oyalariga ko'ra, insonning mavjudligini ikki asosiy sababidir. Shunday qilib, bu birikma, ya'ni inson Forobiy tafakkurida olamdagi shakllanish va yemirilish qonuniga bo'ysunuvchi qo'shma mavjudotdir. Inson koinotdagi tirik mavjudotlardan biri bo'lib, u eng oliy komillikka erishish uchun yaratilgan.

Forobiy tirik mavjudotlarni to'rt qismga ajratadi va ularni, inson, farishta, jin va hayvon (bahoyim) deb tasniflaydi. U bu mavjudotlarni birlashtirib turuvchi hususiyat bu ularning "mahluq"ligidir (arabcha مخلوق ya'ni "yaratilgan"). Bu bilan u borliqdagi barcha mavjudotlarni Holiq ya'ni Yaratuvchi Allah tomonidan yaratilgan ekanligini ta'kidlaydi. Farobiy insonni "tafakkur qiluvchi o'lim", farishtani "o'lmas fikrlovchi", jinni "tafakkur qiluvchi o'lmas", hayvonni esa "fikir qilmaydigan o'lim" deb ta'riflaydi⁴. Bundan ko'rib turibmizki, Forobiy borliqdagi mavjudotlarni o'lish yoki o'lmasligi va tafakkur qobiliyatiga ko'ra tasniflaydi. Inson va farishta tafakkur qilish qobiliyatiga ega ekanligi uchun ularni "tafakkur qiluvchi mavjudot", jin va bahoyimni esa bunday qobiliyat mosuvo deb bilib, "fikir qilmaydigan mavjudot" deb ta'riflaydi. Mavjudotlarning umri tugash yoki tugamasligini esa ularning qanday moddadan yaratilgan ekanligiga bog'liqligini aytadi. Inson va bahoyim, ya'ni hayvon tuproqdan yaratilgan shu sababli ham ularning umri abadiy emas. Ular yer bag'ridan yaralib yana shu yer bag'riga qaytadilar. Farishta va jin esa abadiydir. Buni u islom ta'limotiga ko'ra

² Mahdi, Muhsin. Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago: The University of Chicago Press, 2011. - P.89.

³ Arneldez Rojer. Forobiyning falsafiy tizimidagi ruh va olam. AU Teologiya fakulteti jurnali (XXIII), 1978. - P. 350.

⁴ Rashed, Marwan. On the Authorship of the Treatise On the Harmonization of the Opinions of the Two Sages Attributed to al-Farabi, Arabic Sciences and Philosophy, 2009.19(1): 43–82. doi:10.1017/S0957423909000587.

izohlaydi. Ya'ni, Qur'oni Karimda yozilganidek, farishtalar nurdan, jinlar esa olovdan yaratilgan. Shu sababli ham ularning "o'lmas mavjudot"lardir.

Forobiy risolalaridan birida insonning "tafakkur mohiyati"ga ta'rif berib, aqlning materiyaga munosabatini izohlaydi. Farobiy fikriga ko'ra, inson mohiyatini uch asosiy narsa tashkil qiladi. Bular: aql, ruh va materiya. Aqlli bo'lish - bu aslida o'ylashdir. Materiya – bu inson tasavvuridagi tasvirlarning aql bo'lishiga to'sqinlik qiluvchi komponent⁵. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, agar aql o'z borlig'ida materiyaga muhtoj bo'lmasa, u aslida o'z mohiyati jihatidan aqlidir va u birinchi bo'lgan aqlli mavjudotdir. Inson zotiga mansub aql uning materiyadagi vakolatidir. Shunga qaramay aql - bu Ilohiy ruhning kuchi. Qudrati jihatidan u ruhning (juz) bir qismidir. Bu kuch asosan fitratan va tug'madir.

Forobiy aqlni insonning mohiyatini tashkil etuvchi uchlik ruhning eng nozigi deb ta'riflaydi. Aniqroq aytganda, inson aqlining kelib chiqishi mukammal aqlidir. Komil aql, Alloh taoloning eng saxovatli mohiyatining nuri ila yaratilgan va hamma narsadan ustundir. Boshqacha qilib aytganda, barcha qalblar aqlning asli yoki paydo bo'lish joyi bolgan Allohning amridirki, Forobiy bu "amr" tushunchasini "ruh ul-amr" deb ifodalaydi⁶. Undan insonning ilhomi va vahiyolari kelib chiqadi. Bu tasavvufni ilhomlantiradigan nur va ruhdur. Bu turdagi aqlning o'rni va makoni yoki moddiy sababi hayvoniy ruhdur. Hayvoniy ruh qalbdadir. Demak, qalb hayvoniy ruhning moddiy sababiga, hayvoniy ruh esa aqlning moddiy sababiga aylanadi. Ruh ul-amrdan olgan ilhomlar ruhga yetib boradi, ruh esa qalbgaga yetkazadi. Ruh ul-amirdan olingan ilhomning mohiyati ilm va iroda va kuchdan iboratdir. Alloh taolo aqlni, so'ngra o'z yaratganlari ichida "eng mahjub"ini yaratgan. Forobiy nazarida bu "eng mahjub" payg'ambardir. Eng mukammal aql payg'ambarning aqlidir.

Farobiyning ilk asarlarida yozishicha, insonda uch asosiy insoniylik belgisi borki ular insonning mavjud ekanligini belgilaydi. Bular aql, ruh va qalb. Aql- ruhning nuridir, ruh - qalbning nuridir, ruh va aql - qalbning shakllaridir. Hammasi jamlanganda marvariddek porlayotgan butun bir chiroqdir (miskat). Chiroqda porlayotgan yonib turgan nur ilohiy sifatlar, ya'ni Allohning ilm, iroda va qudrat sifatlaridir. Bu sifatlar Xudodan insonga o'tgan. Umrining so'nggi davrlarida yozgan asarlarida yozishicha, inson aqli va qalbi umumiy bir butunlikka erisha olsa uning ruhi

⁵ Alper Umar. Islom falsafasida aql-vahiy falsafasi-din munosabatlari. - Istanbul: Moonlight kitob do'koni, 2000. - P.258.

⁶ Arneldez Rojer. Forobiyning falsafiy tizimidagi ruh va olam. AU Teologiya fakulteti jurnali (XXIII), 1978. - P.354.

faol aqlga qo'shiladi. Bunday inson dunyo baxt saogatiga erishish yo'llarini anglab yetadi va faylasufga aylanadi. Bunday donishmandlikka faqat nazariy va amaliy tajriba va xulosalar bilan erishish mumkin. Forobiy tafakkurida faylasuf-nabiy nazariy va amaliy hikmatlarni ochib beruvchi, yuksak marraga erishgan shaxsdir. Komil jamiyat esa aynan mana shunday faylasuf, payg'ambarlar qo'ygan qonunlar asosida boshqariladigan jamiyatdir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Forobiy yunon faylasuflari Aristotel va Aflotun g'oyalarini murosaga keltirgan holda o'z falsafasini yaratdi va uni islom g'oyalari asosida izohlab berdi. Forobiy g'oyalariga ko'ra inson uch asosiy birikma - ruh, aql va materiyadan iborat, abadiy dunyo qonunlariga bo'ysinuvchi komponent. Inson Alloh yaratgan azaliy dunyo qonunlarga bo'ysunib yashasa-da, o'z taqdirini belgilashda iroda erkinligiga ega. Inson o'z hatti-harakatlariga o'zi mas'ul ekanligini anglagan holda komillik tomon intilib yashashi lozim. Bunda u insonning eng oliy ne'mati bo'lgan aqlga tayanib yashashi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, inson faqat aqlga tayanib, qalbni unutib qo'yishi kerak emas. Inson aqli va qalbi bir butunlikka erisha olsagina uning ruhi faol aql bilan qo'shiladi va abadiy dunyo baxtiga erishadi.

References:

1. Abu Nasr Farabi. About the essence of Plato's laws. -T.: People's heritage, 1993. -180 p.
2. Adamson, Peter. In the age of Al-Farabi, Arabic Philosophy in the Fourth/Tenth Century//Journal of Islamic Studies 22 (no. 2)-L.: Press, 2011. – 247 p.
3. Ali Yasin Cafer. Al-Farobiy fi hududihi va rusumihi. - Bayrut, 1985. -143p.
4. Alper Umar. Islom falsafasida aql-vahiy falsafasi-din munosabatlari. - Istanbul: Moonlight kitob do'koni, 2000. - 326 p.
5. Arneldez Rojer. Forobiyning falsafiy tizimidagi ruh va olam. AU Teologiya fakulteti jurnali (XXIII), 1978. - 349-358 p.
6. Atay Huseyin. Farobiyning ijod nazariyasi. - Istanbul: Diyonet jurnali. XVI/3, 1977. - 56-64 p.
7. Mahdi, Muhsin. Al Farabi and the Foundation of Islamic Political Philosophy. Chicago:The University of Chicago Press, 2011.-298 p.
8. Rashed, Marwan. On the Authorship of the Treatise On the Harmonization of the Opinions of the Two Sages Attributed to al-Farabi, Arabic Sciences and Philosophy, 2009.19(1): 43–82. doi:10.1017/S0957423909000587.
9. Казибердов А.Л., Муталибов С. А. Абу Наср ал-Фараби. Исследования и переводы. – Т.: Фан, 1986. – 200 с.